



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**  
**HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA‘LIM AGENTLIGINING**  
**B U Y R U G‘ I**

2023-yil 18 - aprel

20 -son

**Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun**  
**markazlashtirilgan holda jihozlarni xarid qilish bo‘yicha**  
**komissiya va baholash guruhlari tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Investitsiya va boshqa davlat dasturlariga asosan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga mebel va boshqa jihozlarni xarid qilish bo‘yicha tender (tanlash) savdolarini o‘tkazish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zinjining” respublika loyiha institutining 2022-yil 1-apreldagi 09/130-257-258-son, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 4-apreldagi 293/03-17-son, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2022-yil 5-maydagi 05-16-04162-son hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2023-yil 31-martdagi 19/2-38069-son xatlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori 2-ilovasiga muvofiq zarur hollarda Komissiya tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining tarkibiy bo‘linmalari (Maktabgacha ta‘lim vazirligi huzuridagi “Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha injiniring kompaniyasi” DUK) rahbarlari va boshqa vazirliklar hamda tashkilotlarning rahbar va xodimlari jalb etilishi mumkinligi, komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritilishi sababli Maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan tizimdagi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun markazlashtirilgan holda jihozlarni xarid qilish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq shakllantirilganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun xarid qilinadigan mebel va boshqa jihozlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert guruhi tarkibi 2-ilovaga;

Malakaviy hujjatlarni baholash bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi, Moliya-iqtisod va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Sh.Pardayev davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun markazlashtirilgan holda jihozlarni xarid qilish bo‘yicha komissiya tarkibiga kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi, Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i B.Nabixo‘jayev Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan tizimdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun markazlashtirilgan holda jihozlarni xarid qilish bo‘yicha komissiya mas’ul kotibi etib tayinlansin. .

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o‘rinbosari N.Muslitdinov zimmasiga yuklatilsin.

**Maktabgacha va maktab ta’limi  
vazirining birinchi o‘rinbosari,  
Maktabgacha ta’lim agentligi direktori**



**A. Shin**

**Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan tizimdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun markazlashtirilgan holda jihozlarni xarid qilish bo'yicha komissiya tarkibi**

1. Muslitdinov Nodir Xojiyevich — O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi direktor o'rinbosari, *komissiya raisi*
2. Karimov Anvar Rasulovich — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari, *komissiya raisi o'rinbosari*
3. Basitxanova Elmira Irkinovna — O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari
4. Igamberdiyev Zoxid Kadirovich — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat soliq qo'mitasi, Umumbelgilangan soliqlar bo'limi boshlig'i
5. Raxbarov Nodirbek Alisherovich — "Ipoteka bank" boshqaruvi kengashi raisining o'rinbosari
6. Shukurov Jasur Nigmatovich — O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktor o'rinbosari
7. Pardayev Sherzod Cho'lliyevich — O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi, Moliya-iqtisod va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
8. Nabixo'jayev Bahodir Soxobovich — O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi, Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i, *komissiya mas'ul kotibi* (ovoz berish huquqiga ega emas)

Izoh: *Zarur hollarda Komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va boshqa vazirliklar hamda tashkilotlarning rahbar va xodimlari jalb etilishi mumkin.*

*Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*